

SHAXS MA'NAVIY KAMOLOTIDA OILANING TUTGAN O'RNI

Akbarova Muslima Bahromjon qizi

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti 2-kurs

akbarovamuslimaxon8@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sattarova Dilrabo Ikrambayevna

Ingliz tili kafedrası assistent o'qituvchi

sattarovadilrabo25@gmail.com

Annotatsiya: "Shaxs ma'naviy kamolotida oilaning tutgan o'rni" mavzusini o'rganadi. Oila shaxsning ilk tarbiyasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradigan muhim muhit sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada oilaning axloqiy tarbiya, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, emotsional qo'llab-quvvatlash, madaniy meros va ma'naviy qiyofani shakllantirishdagi roli tahlil etiladi. Oila ichidagi munosabatlar va qadriyatlar shaxsning ma'naviya kamolotida qanday muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, insonning jamiyatdagi muvaffaqiyati va o'z-o'zini anglashida qanday ta'sir ko'rsatishi haqida fikrlar bildiriladi. Maqola oila va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va oilaning shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

***Kalit so'zlar:** oila, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy kamolot, ijtimoiy ko'nikmalar, tarbiya, munosabatlar, madaniy meros, oila ichidagi muhit, rivojlanish jarayoni, oila roli.*

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov yoshlarni manaviy-ahloqiy tarbiyalashda oila, ota-ona hal qiluvchi orinda turishiga etibor berib shunday degan edi: "Bola tugilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos ananalar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi, eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, ozlarining oxiragini obod etuvchi qarzlari bor. Ular: yaxshi nom qoyish, yaxshi muallim qolida topshirib, savodini chiqarish, ilmi va kasb-hunarli qilish, boshini ikki va uyli-joyli qilish". Oila tarbiyasi – bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik butun umri davomida oladigan marifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor vazifasini o'taydi. Har bir ota-ona oz burchlarini anglagan holda oilani mustahkamligini taminlaydigan hamma xususiyatga to'liq rioya qilishga harakat qilishi, uning vazifa va maqsadlarini tushunishi shart. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida takidlaganidek, “Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. “Oz bolangni ozing asra” degan davat faqat quruq shior bolib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, yani ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun masuliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qoyish vaqti keldi, deb o‘ylayman” **Oila** – an’anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo‘lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta’lim – tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o‘tkazadi, o‘zining ta’sir kuchiga ko‘ra xech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo‘ladi. Oila – bu o‘ziga xos jamoadir u tarbiyada asosiy o‘ringa egadir. Oilani o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan xolda, oilani bolaga ijobiy ta’sirini oshirib, salbiy ta’sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, ichki oilaviy ijtimoiypsixologik omillarni aniq belgilash lozim. Bolani tarbiyasida asosiysi ota-ona bilan bola o‘rtasida qalban yaqinlikka va axloqiy bog‘likka erishishdir. Ota-onalar xech qachon tarbiya jarayonini o‘z xoliga tashlab qo‘ymasligi kerak, ayniqsa katta bo‘la boshlagan bolani o‘z xoliga tashlab qo‘ymasligimiz kerak. Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi, kuzatadi va o‘zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi. Har doim ota-onalar qaror qabul qilishda birinchi o‘ringa o‘zlarini qarashlarini emas, balki bolaga foyda keltirishni o‘ylashlari kerak. Kattalar va bolalar o‘rtasidagi muloqotda quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Bolani qanday bo‘lsa, shunday holda qabul qilish kerak.

2 Kattalar bolalar ko‘zi bilan muammolarga qarashlari va ularning holatlarini his qilishlari kerak.

Agar bola ota-onalarni xohish va istaklariga mos bo‘lsa, ya’ni yaxshi o‘qisa, a’lo xulqli bo‘lsa yoki aksincha ota-onalarni talabalariga javob bermasa, bunda bolalarni ota-onalar o‘zlaridan uzoqlashtiradilar va ularni munosabatlari yomon tomonga o‘zgarib boradi. Oilada soglom muhit mavjud bolgandagina, ularda har tomonlama soglom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan, jismonan baquvvat, aqlan soglom, umuminsoniy madaniyat darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bolgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila manaviyatining tutgan orni alohidadir. Oila tarbiyasi boyicha buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda oziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan,

Islom talimotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha takidlanadi: “Islomda tarbiya talimdan kora ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, kochada, maktabda ozini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini oziga boysundirishdek ogir ishni yolga qoyadi”. Bugungi kunda uyushmagan yoshlarni oila muhitida manaviy barkamol shaxs qilib tarbiyalash va ular orasidagi mavjud illatlarni bartaraf etishda quyidagi masalalarga etibor qaratish foydadan xoli bolmaydi:

1. Oila manaviyatini yuksaltiruvchi tizimlar faoliyatini yanada yaxshilash
2. Qiz bola tarbiyasi uchun milliy qadriyatlar va an`analarimiz asosida yangi tartiblarni joriy etish
3. Jismoniy madaniyat masalasini oilaviy qadriyatlar darajasiga olib chiqish.

Ota-onalarning tarbiyaga oid bilimini oshirish uchun jonli, hayotiy mavzularda qiziqarli ma'ruza, suhbatlar tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda oilaning o'zaro munosabatlari, oilaviy tarbiyada o'qituvchining tutgan o'rne, ularga ta'sir etish va boshqa sifatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy bo'lmagan misollar, umumlashtirishlar, quruq ma'ruzalar hech qanday samara bermasligini hamma tushunadi. Maktab va oila hamkorligidagi ishlarda qo'shimcha uslublardan ham foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, tashkilotchilarning ota-onalarning o'zlari o'z xatti-harakatlarini, xulq-odoblarini tanqidiy baholashlari, ma'qullash va muhokama yuritish metodlarni qo'llashdagi shaxsiy ta'sirni hisobga olish nihoyatda muhimdir. Bunday xatti-harakatlarga doir usullar, odatda, jamoatchilik tomonidan ijobiy baholangan bo'lishi kerak. Chunki kattalar faoliyatining ijobiy yoki salbiy baholanishi ular ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirning kuchini yo oshiradi, yoki kamaytiradi. Maktablarda ota-onalar bilan ishlashda esga solish, maslahat, taklif, iltimos, talab kabi uslublar ham mavjud bo'lib, ulami o'rne kelganda, o'z vaqtida qo'llash yaxshi samara beradi. Ularni tatbiq etishda nihoyatda nazokatli bo'lish, kishi shaxsini hurmat qilish tavsiya etiladi. Oilaning shaxsiy ma'naviya kamolotiga ta'siri quyidagi jihatlardan iborat:

1. **Axloqiy tarbiya:** oila bolalarga axloqiy qadriyatlar, to'g'ri va noto'g'ri tushunchalarini o'rgatadi. Bu esa shaxsning ma'naviya kamolotida asosiy poydevor hisoblanadi.
2. **Ijtimoiy ko'nikmalar:** oila a'zolari o'zaro munosabatlar orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar keyinchalik jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarurdir.

3. **Emotsional qo'llab-quvvatlash:** oila shaxsning emotsional holatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oila ichidagi sevgi, hurmat va qo'llab-quvvatlash shaxsning o'zini qadrlashiga va o'ziga ishonch hosil qilishiga yordam beradi.

4. **Madaniy meros:** oila orqali avloddan-avlodga madaniy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar o'tkaziladi. Bu esa shaxsning ma'naviy dunyosini boyitadi.

5. **Ma'naviy qiyofani shakllantirish:** oila shaxsning ma'naviy qiyofasini, ya'ni uning e'tiqodlari, dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Shunday qilib, oila shaxsiy ma'naviya kamolotida muhim asos bo'lib xizmat qiladi va har bir insonning hayot yo'lida katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir". T., Sharq, 1997-y.
2. НМ Сулейманова, Мм Бобожонова, Связь Номинативных Значений Слова С Пропозитивной Структурой Лингвистика И Методика: Междисциплинарный Подход, 141-144, 2020
3. I.A. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot - pirovard maqsadimiz". T., O'zbekiston. 2000. 8-tom.
4. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Номинативные особенности языковых единиц, Молодой ученый, 212-213, 2018
5. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch"—T.: Ma'naviyat, 2008
6. Ma'naviy Barkamol Insonni Shakllanishida Oilaning Tutgan O'Rni .Feruza Shukurulla qizi Shamurotova
7. Н Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши.
8. Ма'naviy Barkamol Shaxsni Shakllanishida Oilaning O'rni Shixnazarov Behruz Bahrom o'g'li
9. Н. М Сулейманова, О Структурной Схеме Номинативного Значения, Ученый XXI века, 2016
10. Komil inson tarbiyasida oilaning o'rni Abdurauf Abdullayev.2021.
11. Islomjanovna, A. M. (2024). Bolaning Ijtimoiylashuv Jarayonidagi Omillar Hamda Oil A Va Jamiyatning Ahamiyati. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(6), 1154-1158.
12. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришининг Меъёрий-Ҳуқуқий

Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal*, 266.

13. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.
14. Islomjanovna, A. M. (2022). Traditions of culture in Islam and their modern significance. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 198-202.
15. Abdufattokhov, S., Ibragimova, K., & Gulyamova, D. (2021, November). The applicability of machine learning algorithms in predictive modeling for sustainable energy management. In *International Conference on Forthcoming Networks and Sustainability in the IoT Era* (pp. 379-391). Cham: Springer International Publishing.
16. Ghodake, S. P., Malkar, V. R., Santosh, K., Jabasheela, L., Abdufattokhov, S., & Gopi, A. (2024). Enhancing Supply Chain Management Efficiency: A Data-Driven Approach using Predictive Analytics and Machine Learning Algorithms. *International Journal of Advanced Computer Science & Applications*, 15(4).
17. Dohare, S., Pamulaparthi, L., Abdufattokhov, S., Naga Ramesh, J. V., El-Ebiary, Y. A. B., & Thenmozhi, E. (2024). Enhancing Diabetes Management: A Hybrid Adaptive Machine Learning Approach for Intelligent Patient Monitoring in e-Health Systems. *International Journal of Advanced Computer Science & Applications*, 15(1).
18. Abdufattokhov, S., Normatova, N., & Shermatova, M. (2022). Artificial Neural Networks Based Predictive Model for Detecting the Early-Stage Diabetes. *Journal of Artificial Intelligence, Machine Learning and Neural Network (JAIMLNN) ISSN*, 2799-1172.
19. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. *Electrica*, 23(2).
20. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. *Operations Research and Decisions*, 32(4).
21. Alisherovna, M. K. (2022). Assessment of investment attractiveness of industrial enterprises.
22. Mukhitdinova, K. A. (2020). The Importance of Sources of Financing of Transportation System. In *НАУКА 2020. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА* (pp. 23-25).
23. Alisherovna, M. K. (2021). Tasks of implementation of investment policy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 848-852.

24. Alisherovna, M. K. (2022). Use of communication networks in the optimization of investment project work. *TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research*, 11(5and6), 49-52.
25. Alisherovna, M. K. (2021). Car transport an approach to the research of the essence of investment activities of enterprises. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(5), 415-418.